



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON,  
V-QISM**



INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
V-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari  
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi  
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
<b>I. R. Berdikulova</b>	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
<b>Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li</b>	
<b>Turobova Hulkar Rustamovna</b>	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
<b>Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ .....	38
<b>Абдуллаева М.Б.</b>	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
<b>Murodov Sherzodbek Murod o'g'li</b>	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
<b>Kalandarova Elnura Muzaffar qizi</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
<b>Niyozov Zuxur Davronovich</b>	
<b>Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО .....	58
<b>Худойкулова Дилора Дилмуродовна</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
<b>Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi</b>	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
<b>Mavlyanova Dilobar Maxkamovna</b>	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	77
<b>Karimova Dilafruz Sadridin qizi</b>	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
<b>Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи</b>	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI .....	89
<b>Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna</b>	
<b>Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi</b>	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI .....	94
<b>Otarbayev Zamir Zairovich</b>	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI .....	100
<b>Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich</b>	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
<b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
<b>Хо'jamov Akbar Bahriddinovich</b>	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
<b>Djumayev Askar Xaydarovich</b>	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
<b>Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li</b>	
<b>Qahhorova Nargiza Qahramonovna</b>	
<b>Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li</b>	
<b>Jamilov Firdavs Otabek o'g'li</b>	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ .....	129
<b>Норкулов Хабибулло</b>	
<b>Абдурасулова Шахзода</b>	
<b>Бахриддинов Дилшодбек</b>	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV .....	135
<b>Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi</b>	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	138
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ .....	147
<b>Джуманов А.А.</b>	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
<b>Masharipova Durdona Ulug'bekovna</b>	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164
<b>Джуманов А.А.</b>	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174
<b>Rahmanov Furqat Temirovich</b>	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	179
<b>Ибрагимов Гайратжон Артикович</b>	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH .....	186
<b>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</b>	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILLIGIGA TA'SIRI.....	192
<b>Shakarov Zafar Gafforovich</b>	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI .....	198
<b>Boboqulov Sanjar Baxronkulovich</b>	
<b>Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li</b>	
<b>Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li</b>	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI .....	204
<b>Jiyanov Laziz Najimovich</b>	
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ .....	210
<b>Курбанова Дилфуза Махсудовна</b>	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	217
<b>Karimova Feruza Xamidullayevna</b>	
PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEKANIZMI.....	221
<b>Ishniyazov Zoxid Normamatovich</b>	
FUQAROLAR MUHOJIRLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI .....	226
<b>Inomov Daniyar Valijonovich</b>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR.....	232
<b>Niyozov Zuhur Davronovich</b>	
<b>Xolmurotov Sardor</b>	
<b>Haydaraliyev Avaz</b>	
YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL .....	238
<b>Tolibova Aziza To'lqin qizi</b>	
BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR.....	243
<b>Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna</b>	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....	247
<b>Masharipova Sevara</b>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	251
<b>Ergashev Jamshid Jamoliddinovich</b>	
<b>Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi</b>	
BALIQCILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	256
<b>Iskandar Yunusov</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOIIYIQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI .....	262
<b>Mirzanov Berdak Joldasbeviç</b>	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MEKANIZMLARIGA TA'SIRI .....	268
<b>A'zamxo'jayeva Nihol</b>	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI: METODOLOGIYA VA TAKOMILLASHTIRISH .....	273
<b>Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich</b>	



O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	278
<b>Ruziyeva Nigina Baxtiyorovna</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR (MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA) .....	284
<b>G.A. Norbo'tayeva</b>	
YASHIL MARKETING VA ESG INTEGRATSIYASI: STATISTIK TAHLIL VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	288
<b>Charos G'ayratova</b>	
РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ СИСТЕМ И ОБЗОР ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	294
<b>Джуманов, А.А.</b>	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH — IQTISODIY TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI.....	303
<b>Bayitova Rohatoy Bahrom qizi</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHILARNI SUG'URTA MEKANIZMLARI ORQALI MOLIYALASH MASALALARI .....	307
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQAROR FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	314
<b>Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li</b>	
FOOD PRICE VOLATILITY AND ITS EFFECTS ON LOW-INCOME HOUSEHOLDS .....	320
<b>Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi</b>	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	327
<b>Hamidova Shahzoda Odiljanovna</b>	
MHS VA XUSUSIY SEKTOR KREDITLARI: MAMLAKATLARARO EMPIRIK TAHLIL.....	331
<b>Davronbek Matyakubovich Matkarimov</b>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING ZARURATI.....	336
<b>Xasanova Yulduz Kayumovna</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ALOQA KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	340
<b>Saidqosimova Umida Ibragimovna</b>	
PROSPECTS FOR DEVELOPING BROKERAGE AND UNDERWRITING ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN.....	345
<b>Niyozov Zukhur</b>	
<b>Barnoyev Mirfayoz</b>	
<b>Yadgarov Avaz</b>	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING .....	349
<b>Begzod Nishanov</b>	
BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	356
<b>Raxim Matniyazov</b>	
<b>Umar Asrayev</b>	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	367
<b>Зугурова Зилола Дамировна</b>	



EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUV .....	371
<b>Gapparov Sarvar Xolmurodovich</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ КАК ФИНАНСОВЫЙ РЕСУРС УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ .....	375
<b>Гимранова О. Б.</b>	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASI TAHLILI (2010–2025-yillar) .....	383
<b>Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich</b>	
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISH SAMARADORLIGINI INTEGRAL INDEKS ASOSIDA BAHOLASH VA HUDUDLARNI TABAQALASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) .....	388
<b>Raximov Faxriddin Shavkatovich</b>	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ TO'LOVCHILAR XULQ-ATVORINI MODELLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL VA BIXEVIORISTIK YONDASHUVLARNING INTEGRATSIYASI .....	393
<b>Urazmatov Jonibek Musurmanovich</b>	
O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORI: JORIY HOLAT, TENDENSIYALAR VA XALQARO TAJRIBA .....	398
<b>Eshqobulova Charos O'roq qizi</b>	
KORXONALAR EKSPORT FAOLIYATINI BOSHQARISHDA INNOVATSION MOLIYAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	403
<b>To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR .....	410
<b>Islomov Shuhrat Marufjonovich</b>	
<b>Eshquvvatova Nodira Abdullayevna</b>	
METHODOLOGICAL APPROACHES TO ENHANCING PROFESSIONAL COMMUNICATION SKILLS OF FUTURE TEACHERS IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT .....	416
<b>Dilnoza Jorayevna Kuvatova</b>	
MINTAQAVIY TURIZM RESURLARINING TASNIFI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI (SAMARQAND, BUXORO VA XORAZM VILOYATLARI MISOLIDA) .....	420
<b>Sharipov Shahriyor Shamsiddin o'g'li</b>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIKLARIDAGI SUBYEKT VA PREDIKAT PARADIGMASI, ULARNING UMUMIY VA XUSUSIY JIHLTLARI .....	423
<b>Azamova Gulruh Akbar qizi</b>	
BUXORODA TURISTLAR XAVFSIZLIGI: TURISTLARNING XAVFSIZLIK HISSI VA MUAMMOLAR TAHLILI .....	428
<b>Kurbanova Mohinur Xabib qizi</b>	
<b>Davronova Durdona Akobirovna</b>	
BUXORO VILOYATIDA EKOLOGIK VA MADANIY TURIZMNI INTEGRATSIYALASHGAN YO'NALISHLARINI RIVOJLANTIRISH: BARQAROR RIVOJLANISH METODLARI VA ISTIQBOLLARI .....	436
<b>Xayrullayeva Nilufarbegim Nematullo qizi</b>	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИСТОЧНИКОВ ИНВЕСТИРОВАНИЯ В ИННОВАЦИОННЫЕ ПРОЕКТЫ .....	445
<b>Хашимова Н. А.</b>	
QASHQADARYO VILOYATI AHOLISINI IJTIMOY HIMOYA QILISH TIZIMINING STATISTIK TAHLILI .....	454
<b>M.Sh. Raximova</b>	



O'ZBEKISTON SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH XIZMATLARI RIVOJLANISHI HAMDA QONUNIY QO'LLAB-QUVVATLANISHI.....	458
<b>Raimbayev Azim Sultonovich</b>	
<b>Bolbekova Iroda Quvandiq qizi</b>	
MHXS GA MUVOFIQ FOIZLAR, SOLIQLARNI TO'LAGUNGA QADAR OLINGAN FOYDANI HISOBGA OLISH MASALALARI.....	466
<b>Amir Xudaykulov</b>	
SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON KAPITALINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING KONSEPTUAL-EKONOMETRIK MODELİ .....	470
<b>Dilmonov Quðrat Baxtiyorovich</b>	
THE DIGITAL GASTRONOME: HOW TECHNOLOGY CONNECTS TOURISTS, RESTAURANTS, AND THE TECH EMPIRE.....	479
<b>Freshta Qauomy</b>	
BUXORO VILOYATINI IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI .....	481
<b>Kudratov Muhammad Rustamovich</b>	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ПОМОЩИ И ПОДДЕРЖКИ В РЕГИОНЕ.....	487
<b>Рахимова Мадина Шухрат кизи</b>	
THE DIGITAL ECONOMY AND ITS IMPACT ON THE LABOUR MARKET AND EMPLOYMENT IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN: PANEL DATA ANALYSIS .....	493
<b>Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li</b>	
MINTAQADA QURILISH SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	500
<b>Aminov Sardorbek Sanjarbekovich</b>	
QURILISHDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASINING SINERGETIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA PROGNOZLASHTIRISH.....	504
<b>Axmedova Nilufar Shuxratovna</b>	



# QURILISHDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASINING SINERGETIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA PROGNOZLASHTIRISH

Axmedova Nilufar Shuxratovna

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: n.axmedova@taqu.uz

UDK: 330.342:69(575.1)

**Annotatsiya.** Maqolada qurilish sohasida kichik va yirik biznes subyektlari integratsiyasining sinergetik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Muallif tomonidan integratsiya sinergetik samarasini iqtisodiy, resurs, vaqt, risk va strategik bloklar kesimida kompleks baholovchi ISI (Integration Synergy Index) integral indeksi hamda uning iqtisodiy talqinini ta'minlovchi interpretatsiya shkalasi taklif etilgan. Logit-regression tahlil, elastiklik koeffitsiyentlari, ARIMA va ARMAX modellari yordamida integratsiyaning qurilish ishlari hajmi va mehnat unumdorligiga ta'siri baholangan hamda 2030-yilgacha bo'lgan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan. Olingan natijalar integratsiya darajasini oshirish qurilish sohasida kichik biznes rivojlanish ehtimolini 36 foizga, integratsiyaning umumiy iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini esa 32 foizga oshirishini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, sinergetik samara, ISI integral indeksi, qurilish sohasi, kichik va yirik biznes, elastiklik koeffitsiyenti, logit-model, ARIMA, ARMAX, prognoz, mehnat unumdorligi.

**Аннотация.** В статье исследованы теоретико-методологические основы оценки синергетической эффективности интеграции субъектов малого и крупного бизнеса в строительстве. Автором предложен интегральный индекс ISI (Integration Synergy Index), оценивающий синергетический эффект интеграции по экономическому, ресурсному, временному, рисковому и стратегическому блокам, а также шкала его интерпретации. На основе логит-регрессионного анализа, коэффициентов эластичности, моделей ARIMA и ARMAX оценено влияние интеграции на объем строительных работ и производительность труда, а также разработаны прогнозные значения до 2030 года.

**Ключевые слова:** интеграция, синергетический эффект, интегральный индекс ISI, строительство, малый и крупный бизнес, коэффициент эластичности, логит-модель, ARIMA, ARMAX, прогноз, производительность труда.

**Abstract.** The article examines the theoretical and methodological foundations for assessing the synergetic efficiency of the integration of small and large business entities in the construction sector. The author proposes an integral ISI (Integration Synergy Index) that evaluates the synergetic effect of integration across economic, resource, time, risk and strategic blocks, together with an interpretation scale ensuring its economic meaning. Using logit-regression analysis, elasticity coefficients, and ARIMA and ARMAX models, the impact of integration on the volume of construction works and labour productivity is assessed, and forecast values up to 2030 are developed. The results show that increasing the level of integration raises the probability of small-business development in the sector by 36 percent and the effect of integration on overall economic efficiency by 32 percent.

**Keywords:** integration, synergetic effect, ISI integral index, construction sector, small and large business, elasticity coefficient, logit model, ARIMA, ARMAX, forecast, labour productivity.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida qurilish sohasi iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va infratuzilma rivojlanishining asosiy drayver tarmoqlaridan biri sifatida muhim o'rin egallaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu soha global miqyosda umumiy bandlikning qariyb 7,6 foizini qamrab oladi hamda 230 milliondan ortiq aholining mehnat faoliyatini o'zida mujassam etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va yirik biznes subyektlari



jahon korxonalarining qariyb 90 foizini tashkil etib, umumiy bandlikning 50 foizdan ortig'ini ta'minlaydi hamda yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 40 foizini shakllantiradi.

Qurilish mahsulotlariga bo'lgan talabning o'zgaruvchanligi, loyihalarning murakkabligi va risk darajasining yuqoriligi kichik hamda yirik biznes subyektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni samarali tashkil etishni taqozo etadi. Integratsiya natijasida sinergetik samaraga erishish, ya'ni "2+2>4" effektini yuzaga chiqarish, xarajatlarni optimallashtirish, loyiha muddatlarini qisqartirish va risklarni kamaytirish imkoniyatlari kengayadi. Shu jihatdan, qurilish sohasida kichik va yirik biznes subyektlari o'rtasidagi integratsion aloqalarni tizimli rivojlantirish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilgan yagona metodologik yondashuvni shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi qurilish sohasida kichik va yirik biznes subyektlari integratsiyasining sinergetik samaradorligini baholash bo'yicha kompleks metodikani ishlab chiqish, integratsiyaning qurilish ishlari hajmi hamda mehnat unumdorligiga ta'sirini ekonometrik usullar yordamida asoslash va 2030-yilgacha bo'lgan prognoz qiymatlarini hisoblashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik va yirik biznes subyektlari integratsiyasining iqtisodiy mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan asoslashda xorijiy olimlarning nazariy qarashlari muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. R. Kouz va O. Uilyamsonning transaksion xarajatlar nazariyasiga ko'ra, integratsiya tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, risklarni taqsimlash va uzoq muddatli hamkorlikni ta'minlash mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. M. Porterning qiymat zanjiri konsepsiyasi integratsiyani qiymat zanjirining har bir bo'g'ini samaradorligini oshirish hamda milliy raqobatbardoshlikni kuchaytiruvchi omil sifatida talqin qiladi. Y. Shumpeter yondashuvida kichik biznes innovatsion g'oya manbai, yirik biznes esa resurs va masshtablashtirish mexanizmi sifatida integratsiyalashganda innovatsion sinergiya shakllanadi. D. Nort esa integratsiyaning barqarorligini huquqiy kafolatlar, shartnomaviy intizom va institutsional muhit sifati bilan bog'laydi.

Klasterlashuv va tarmoq hamkorligi masalalari M. Porter, T. Andersson, E. Bergman hamda L. S. Markov va M. A. Yagolniserlarning fundamental tadqiqotlarida o'rganilgan. MDH mamlakatlari olimlari — Ye. T. Gaydar, D. O. Masoyan, V. A. Voronin va boshqalar tomonidan kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi o'rni hamda investitsion-qurilish faoliyatini boshqarish mexanizmlari tadqiq etilgan. Ushbu ilmiy ishlarda korxonalar darajasidagi o'zaro hamkorlik samaradorligini baholash masalalari ham muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan. Mamlakatimiz olimlari S. S. G'ulomov, A. M. Hikmatov, Sh. N. Zaynutdinov, R. I. Nurimbetov, B. Yu. Xodiyev va boshqalarning ilmiy ishlarida kichik biznesni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda qurilish iqtisodiyotini modernizatsiya qilish masalalari keng yoritilgan.

Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qurilish sohasida kichik va yirik biznes subyektlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini baholashda tizimli va kompleks nazariy-metodologik yondashuvni yanada takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Amaldagi baholash usullari ko'p hollarda foyda yoki rentabellik kabi an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslanadi. Shu bilan birga, qurilish muddatining qisqarishi, risk darajasining pasayishi, resurslardan samarali foydalanish hamda yangi bozor segmentlariga chiqish kabi sinergetik natijalarni kengroq qamrab oluvchi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Bu esa integratsiya samarasini kompleks baholaydigan ilmiy asoslangan metodikani shakllantirishning dolzarbligini yanada oshiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda terminologik tahlil, omilli tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash hamda iqtisodiy-matematik usullardan, shuningdek, tizimli va ehtimoliy-adaptiv yondashuvlardan foydalanilgan. Integratsiyaning qurilish sohasida kichik biznes rivojlanish ehtimoliga hamda umumiy samaradorlikka ta'sirini baholashda logit-regression modellar qo'llanilgan. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va mehnat unumdorligiga ta'sirini o'lchashda logarifmik, ya'ni Kobb-Duglas tipidagi modellar asosida elastiklik koeffitsiyentlari baholangan. Prognoz qiymatlarini ishlab chiqishda polinomial, ya'ni kvadrat trend modeli, ARIMA hamda ARMAX modellaridan foydalanilgan.

Hisob-kitoblarda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2010–2025-yillardagi rasmiy ma'lumotlari hamda qurilish korxonalari o'rtasida o'tkazilgan ekspert so'rovnomasi natijalari manba sifatida xizmat qilgan. Modellarining ishonchligi z-statistika, t-statistika, determinatsiya koeffitsiyenti ( $R^2$ ), Darbin-Uotson (DW) mezoni va o'rtacha mutlaq foiz xatoligi (MAPE) ko'rsatkichlari yordamida asoslangan.

Integratsiya sinergetik samarasini baholash uchun muallif tomonidan ISI (Integration Synergy Index) integral indeksi taklif etilgan. Indeks beshta funksional blok — iqtisodiy (E), resurs (R), vaqt (T), risk (Q) va strategik (S) bloklarning normallashtirilgan hamda vaznlashtirilgan ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi:



$$ISI = \alpha E + \beta R + \gamma T + \delta Q + \varepsilon S,$$

bunda  $\alpha, \beta, \gamma, \delta, \varepsilon$  — tegishli bloklarning vazn koeffitsiyentlari bo'lib, ularning yig'indisi birga teng; E, R, T, Q, S esa iqtisodiy, resurs, vaqt, risk va strategik bloklarning normallashtirilgan xususiy ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Indeks qiymatining iqtisodiy talqini 1-jadvalda keltirilgan interpretatsiya shkalasi orqali amalga oshiriladi.

1-jadval  
ISI indeksi bo'yicha interpretatsiya shkalasi<sup>1</sup>

ISI qiymati	Baho	Iqtisodiy talqin
0–0,4	Past	Integratsiya samarasi yetarli emas, kooperatsiya effekti zaif.
0,4–0,7	O'rta	Ijobiy natija mavjud, ammo zaxira imkoniyatlari katta.
0,7–1,0	Yuqori	Integratsiya samarali, sinergetik natija barqaror.
>1,0	Kuchli sinergiya	Integratsiya natijasi alohida faoliyat natijalaridan sezilarli darajada yuqori.

Mazkur shkala indeksning son qiymatini mazmunli iqtisodiy xulosaga aylantirish imkonini beradi. ISI indeksining 1 dan yuqori bo'lishi integratsiya natijasida nafaqat “musbat effekt”, balki kuchli sinergetik ustunlik shakllanganini, ya'ni integratsiyalashgan tizim foyda, resurs, vaqt, risk va strategik jihatlar bo'yicha alohida subyektlar yig'indisidan yuqori natija berayotganini anglatadi. Kompozit indikatorlar bo'yicha OECD metodologiyasiga muvofiq, indeks qiymatini talqin qilishda obyekt turi, hudud xususiyati yoki loyiha tavsifiga qarab intervallarni aniqlashtirish mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish sohasida kichik va yirik biznes rivojlanishidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikni, shuningdek, ular o'rtasidagi integratsiya darajasining sohada kichik biznes rivojlanish ehtimoliga ta'sirini baholash maqsadida korxonalar rahbarlari o'rtasida ekspert so'rovnomasi o'tkazildi. Integratsiya darajasi respondentlar tomonidan juda yuqori — 4 ball, yuqori — 3 ball, o'rtacha — 2 ball va past — 1 ball mezonlari asosida baholandi. So'rovnoma natijalari asosida quyidagi logit-model qurildi:

$$P(X_1=1 | X_2, X_6) = 1 / [1 + e^{-(1,47 \cdot X_2 + 0,21 \cdot X_6)}]$$

bunda  $X_1$  — kichik biznesni rivojlangan deb hisoblash ehtimoli;  $X_2$  — kichik va yirik biznes o'rtasida o'zaro ta'sir va bog'liqlik mavjudligiga oid javob;  $X_6$  — integratsiya darajasiga oid javob. Model koeffitsiyentlari z-statistika bo'yicha adekvat bo'lib, to'g'ri prognoz qilingan holatlar ulushi 83,8 foizni tashkil qildi.

Tahlil natijalari o'zaro ta'sir va bog'liqlik mavjud bo'lmaganda hamda integratsiya darajasi past baholanganda kichik biznesning rivojlanish ehtimoli 0,55 ni tashkil qilishini ko'rsatdi. Integratsiya darajasining oshishi ushbu ehtimolni 0,70 gacha yetkazadi, chekli ta'sir esa 0,05 birlikni tashkil etadi. O'zaro ta'sir va bog'liqlik mavjud bo'lganda integratsiya darajasining oshishi ehtimolni 0,84 dan 0,91 gacha oshiradi. Ikkala omilning birgalikdagi ijobiy ta'siri sohada kichik biznesning rivojlanish ehtimolini 36 foizga oshiradi.

Integratsiyaning umumiy samaradorlikka ta'sirini baholash uchun ikkinchi logit-model qurildi:

$$P(X_3=1 | X_4, X_6) = 1 / [1 + e^{-(0,52 \cdot X_4 + 0,26 \cdot X_6)}]$$

bunda  $X_4$  — integratsiya samaradorligini baholashga oid javob. To'g'ri prognoz qilingan holatlar ulushi 79,6 foizni tashkil qildi. Integratsiya darajasi past bo'lganda integratsiyaning samaradorlikka ta'sir qilish ehtimoli 57 foizdan 79 foizgacha, o'rta va yuqori darajalarda esa mos ravishda 63–83 foiz hamda 69–89 foizgacha oshadi. Ikkala omilning bir vaqtdagi yuqori darajasi integratsiyaning umumiy samaradorlikka ta'sirini 89 foizgacha yetkazadi, ya'ni umumiy chekli ta'sir 32 foizni tashkil qiladi.

Bajarilgan qurilish ishlaridagi o'sishda kichik va yirik biznesning hissasini aniqlash uchun logarifmik funksiya asosida elastiklik koeffitsiyentlari baholandi:

$$\ln C = 0,60 + 0,66 \cdot \ln CS + 0,34 \cdot \ln CB$$

(t: 7,87; 44,82; 16,27;  $R^2 = 0,99$ ; DW = 1,56; MAPE = 0,1)

1 Muallif ishlanmasi.



bunda C — bajarilgan qurilish ishlari hajmi; CS — kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi; CB — yirik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, o'zgarmas narxlarda, mlrd so'm. Natijalar kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining 1 foizga oshishi jami qurilish ishlarini 0,66 foizga, yirik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining 1 foizga oshishi esa jami qurilish ishlarini 0,34 foizga oshirishini ko'rsatadi. Bu qurilish sohasidagi o'sishni ta'minlashda kichik biznesning ta'siri yuqori ekanligini asoslaydi.

Mehnat unumdorligiga ta'sirni baholashda har bir bandga to'g'ri keladigan qurilish ishlari hajmi tahlil qilindi:

$$\ln PC = -4,86 + 0,51 \cdot \ln CS + 0,32 \cdot \ln CB$$

$$(R^2 = 0,99)$$

Kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining 1 foizga oshishi har bir bandga to'g'ri keladigan qurilish ishlari hajmini 0,51 foizga, yirik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining 1 foizga oshishi esa 0,32 foizga oshiradi. Demak, mehnat unumdorligini oshirish va samaradorlikka erishishda kichik biznes muhim iqtisodiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kichik va yirik biznes integratsiyasi asosida amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmining ta'sirini baholashda quyidagi dinamik model olindi:

$$\ln C_t = 5,25 + 0,54 \cdot \ln(CO)_{t-1}$$

$$(R^2 = 0,97)$$

Integratsiya ta'siri dastlabki yilda to'liq namoyon bo'lmasa-da, ikkinchi yildan boshlab ijobiy samara beradi va jami qurilish ishlari hajmini 0,54 foizga oshiradi. Integratsiyalashgan ishlar ulushining ta'sirini ifodalovchi model:

$$\ln C_t = 8,73 + 0,038 \cdot SCO_{t-1}$$

elastiklik koeffitsiyentining birdan katta, ya'ni 3,8 ga teng ekanligini ko'rsatadi. Bu esa mazkur omil hisobiga soha taraqqiyotini jadallashtirish istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanligini asoslaydi.

Sohaning jadal o'sish sur'atlarini hisobga olgan holda, bajarilgan qurilish ishlari hajmining 2026–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ko'p variantli modellar, ya'ni polinomial va ARIMA (2,2,1) modellari asosida shakllantirildi (2-jadval).

2-jadval  
Bajarilgan qurilish ishlari hajmining prognoz qiymatlari, mlrd so'm<sup>2</sup>

Yillar	Polinomial model	ARIMA (2,2,1) modeli
2026	46 809,1	48 947,4
2027	50 546,4	52 225,7
2028	54 436,5	55 673,0
2029	58 479,2	60 166,8
2030	62 674,6	65 225,6

ARIMA (2,2,1) modeli natijalariga ko'ra, kelgusi besh yillikda o'rtacha o'sish sur'ati 8,0 foizni tashkil etib, bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2030-yilga borib 65 225,6 mlrd so'mga yetishi hamda 2025-yildagiga nisbatan 1,47 barobarga oshishi kutilmoqda. Kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi esa 2030-yilga borib qariyb 1,46 barobarga ortishi prognoz qilinmoqda.

Kichik va yirik biznes subyektlari hamkorligida bajarilgan qurilish ishlari hajmining prognozi ARMAX (1,1,1) modeli asosida hisoblandi. Model natijalariga ko'ra, mazkur ko'rsatkichning o'rtacha o'sish sur'ati 11,9 foizni tashkil etib, kelgusi besh yilda 1,75 barobarga oshishi kutilmoqda. Natijada kichik va yirik biznes hamkorligida bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi 2025-yildagi 40,8 foizdan 2030-yilga borib 48,6 foizgacha yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa integratsiyaning qurilish sohasi taraqqiyotini ta'minlash, hamkorlik aloqalarini kengaytirish va umumiy samaradorlikni oshirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

2 Muallif ishlanmasi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida qurilish sohasida kichik va yirik biznes subyektlari integratsiyasining sinergetik samaradorligini baholash bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi.

Birinchiidan, qurilish sohasida integratsiya samarasi faqat moliyaviy natijalar bilan emas, balki iqtisodiy, resurs, vaqt, risk va strategik omillarning o'zaro uyg'un ta'siri orqali shakllanadi. Shu bois integratsiya jarayonlarini baholashda an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ko'p o'lchovli sinergetik yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq. Taklif etilgan ISI integral indeksi va uning interpretatsiya shkalasi integratsiya natijadorligini aniqlash, turli integratsiya shakllarini qiyosiy baholash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ilmiy-metodologik asos vazifasini bajaradi.

Ikkinchiidan, ekonometrik tahlil integratsiya darajasining oshishi sohada kichik biznes rivojlanish ehtimolini 36 foizga, integratsiyaning umumiy iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini esa 32 foizga oshirishini ko'rsatdi. Elastiklik koeffitsiyentlari — 0,66 va 0,51 — qurilish sohasida iqtisodiy o'sish hamda mehnat unumdorligini ta'minlashda kichik biznesning muhim rolini, integratsiyalashgan ishlar ulushining yuqori elastikligi — 3,8 — esa ushbu omilning istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanligini asoslaydi.

Uchinchiidan, prognoz natijalariga ko'ra, 2030-yilga qadar jami bajariladigan qurilish ishlari hajmi 1,47 barobarga, kichik va yirik biznes hamkorligida bajariladigan qurilish ishlari hajmi esa 1,75 barobarga oshishi hamda ularning jami qurilish ishlaridagi ulushi 48,6 foizga yetishi kutilmoqda. Shu sababli sohada raqamli kooperatsiya mexanizmlarini rivojlantirish, subpudrat munosabatlarini takomillashtirish, klasterlashuvni rag'batlantirish va institutsional qo'llab-quvvatlash choralarini kengaytirish qurilish tarmog'ining barqaror rivojlanishi hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2025. <https://lex.uz/docs/-7444738>
2. Coase R. H. The Nature of the Firm // *Economica*. – 1937. – Vol. 4, No. 16. – P. 386–405.
3. Williamson O. E. The Economic Institutions of Capitalism. – New York: Free Press, 1985. – 468 p.
4. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
5. Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. – M.: Альпина Паблишер, 2016. – 603 c.
6. North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
7. Andersson T., Schwaag-Serger S., Sorvik J., Hansson E. W. The Cluster Policies Whitebook. – Malmö: IKED, 2004. – 250 p.
8. Bergman E. M., Feser E. J. Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications. – Morgantown, WV: Regional Research Institute, WVU, 1999. – 62 p.
9. Hadi Sarvari, Daniel W. M. Chan et al. Critical Success Factors for Managing Construction Small and Medium-Sized Enterprises in Developing Countries of the Middle East // *Journal of Building Engineering*. – 2021. – Vol. 43. – 103152.
10. Малый и средний бизнес как фактор экономического роста России / Ин-т экон. политики им. Е. Т. Гайдара. – М.: Изд-во Ин-та Гайдара, 2019. – 308 с.
11. G'ulomov S. S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: "Sharq", 2002. – 369 b.
12. OECD. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. – Paris: OECD Publishing, 2008. – 158 p.
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. [Elektron resurs]. – URL: <https://stat.uz> (murojaat sanasi: 2026-yil).



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>